



**OZUQALARNI MOLLARGA BERISHGA TAYYORLASH CHET EL
TEXNOLOGIYALARI VA AVTOMATLASHTIRILGAN INNOVATSION
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHQARISH**

1. Raxmatova Sayyora Komiljon qizi

2. Tursnov Xayrullo Sharofiddinovich

3. Eshdavatov Orif Zokirovich

*(Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalari universiteti Toshkent filiali dotsentlari)*

Kirish.

Respublikamizning ilg'or chorvachilik xo'jaliklarida sudor sigirlar va ona qo'ylarni ratsionida oqsilga boy ozuqalar ko'proq bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bu tajribada isbotlangan. Masalan, rivojlangan chet el tajribasiga ko'ra, sigirlar ratsionidagi ozuqalar tarkibida protein (oqsil) miqdori talab etilganga nisbatan 25-30% oshirilsa, birinchidan, ularning suti 10%, sutining yog'i va oqsili 0,2-0,3% hamda sutidagi quruq moddalar 0,3-0,5% ortgan va aksincha, agar yem-xashakning sifati past, unda protein va (oqsil) yetarli darajada bo'lmasa, u holda sut miqdori 20%, yog' va oqsil 0,3-0,4%, quruq moddalar 0,7-0,9% ga kamayib ketgan. Lekin ratsionda oqsilga juda boy bo'lgan ozuqalar miqdorini ko'paytirib yuborish ham ijobiy natija bermaydi. Masalan. A.S.Solun fikricha, bunday vaqtda sigir oshqozonida ozuqalar sust achiydi, sirka kislota hosil bo'lishi kamayadi va ichaklarda shimilishi uchun talab etilgan ozuqa tayyor holda kelmaydi, pirovardida, sutning yog'i ham kamayib, oqsilning asosiy qismi axlati bilan (foydasiz xolda) tashqariga chiqarib yuboriladi.

I.S. Popov fikricha, sigirlar ratsionida lizin, fenilalanin, gistidin, metionin, arginin, valin va triptofan kabi aminokislotalarning yetarli bo'lishi katta ahamiyatga ega. Chunki bu moddalar muhim hayotiy ahamiyatga ega ekanligi isbotlangan.

Keyingi yillarda ayrim ilg'or xo'jaliklarda, mollar ratsionida oqsil yetishmasa, yem-xashakka tarkibida azot bo'lgan sintetik moddalar qo'shib



yuborilmoqda va bu yaxshi natija bermoqda. Jumladan, karbomid (mochevina), ammoniy sulfat asosiy sintetik moddalar hisoblanadi. Lekin bu usul qancha keng qo'llanilmasin, xayvonlar ratsionidagi tabiiy oqsilning faqat ma'lum bir qismi o'rnini to'ldiradi halos.

Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti olimlari fikriga ko'ra karbamiddan turli xo'jaliklarda turlicha foydalaniladi. Masalan, hayvon uchun talab etiladigan karbomid sutkasiga ikki yoki uch qismga bo'lingani holda ular ozig'iga qo'shib beriladi. Ayrim xo'jaliklarda silos bostirish vaqtida ham ko'k massaga karbamid qo'shib siloslash yoki maydalangan beda pichani yoki somon kabi ozuqalarga karbomid eritmasi sepilgan holda ular ivitib va yumshatib beriladi. Buning natijasida yem-xashak tarkibidagi protein 4 marta ko'paygan, binobarin, sutning oqsili 3,3% gacha, yog'i 3,7% gacha, quruq moddalari 12,6% gacha ortganligi aniqlangan.

Har xil ozuqalar (somon, pichan, kepak, kartoshka, ildizmevalar, don, kunjara va hokazolar) ning to'yimliligini va hazm bo'lishini yaxshilash maqsadida ularga turli usullarda ishlov beriladi.

Somon maydalanadi. qoramolllar uchun 1,5-2 sm, qo'ylar uchun 0,5-1,5 sm bo'lishi kerak. Mollarga berishdan oldin unga kuchsiz namakob sepiladi, so'ngra don yormasi, bardi, silos va maydalangan ildizmevalar qo'shib aralashtiriladi. Ayrim hollarda umumiy miqdorining 1-1,5% atrofida karbomid ko'shiladi. Makkajo'xoridan silos tayyorlashda ham bir tonna ko'k massaga 5-6 kg hisobidan karbomid qo'shiladi. Buning natijasida silos tarkibida hazmlanuvchi protein miqdori 1,5-2 marta ortadi.

Achitqilar (xamirturush) ham yem-xashakni mollarga berishga tayyorlashda salmoqli o'rin tutadi. Masalan, kepak, don yormasi, kunjara, shrot kabilarga achitqi qo'shilsa, tarkibi vitamin, oqsil moddalarga boyiydi va ta'mi yaxshilanadi. Agar 0,5-1 kg xamirturushni 5 l suvda eritib, 100 kg quruq oziqqa qo'shilsa, u hayvonlar uchun (ayniqsa qoramollar va qo'ylar uchun) juda yaxshi ozuqa hisoblanadi.



Sutdor sigirlarni va ona qo'ylarni boqishda ularning sut mahsuldorligi xisobga olinadi. Binobarin, laktatsiya mobaynida sog'ib olingan sut miqdoriga ko'ra ularga beriladigan yem-xashak nisbati quyidagicha bo'lishi mumkin.

Sutdor sigirlarni va ona qo'ylarni boqishda ularning sut mahsuldorligi eng yuqori darajaga yetguncha ratsioni sifatiga va tarkibiga alohida e'tibor berish talab etiladi. Ayniqsa ular tuqqandan keyin 2-3 kun mobaynida bunday tadbirlarni qo'llash foydalidir. Sigirlarning sutini va ayniqsa sutini yog'ini oshirishda yemning foydasi katta. Binobarin, norma asosida berib borishga e'tibor kuchaytirilishi kerak. Sigirlar qancha sersut bo'lsa, ularga shunday ko'p yem berish kerak.

Yem-xashakning sifati va tarkibi. Sutli mollarga qancha ko'p xilma-xil yem-xashak berilsa, ularning suti ko'payishi xammaga ma'lum. Lekin ularning to'yimliliigi, mollarning mahsuldorligi, fiziologik holati va ko'pincha individual xususiyatlari hisobga olinmaganligi sababli, ularning maxsuldorlik imkoniyatlari to'la ro'yobga chiqarilmaydi.

Ma'lumki sut beradigan hayvonlar iste'mol qilgan yem-xashakning bir qismi sut hosil bo'lishiga sarflansa, bir qismi organizmda kuch-quvvat (energiya) hosil bo'lishi uchun, yana bir qismi esa, ular embrionining rivojlanishi uchun foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasi hududining 60 % dan ortig'i cho'l hududlaridan iborat va 3 mln. dan ortiqroq aholisi ushbu noqulay iqlim sharoitiga ega bo'lgan yerlarda istiqomat qilishadi. Ushbu aholining asosiy daromad manbai – cho'l chorvachiligi bo'lib, bu soha butunlay cho'l yaylovlari ozuqa resurslariga tayangan holda rivoj topmoqda. Cho'l yaylovlari eng arzon ozuqa manbai hisoblanadi. Yaylovlar hosildorligi yilning kelishiga bog'liq bo'lib, yog'ingarchilik ko'p bo'lgan yillarda hosildorlik 3-4 s yeyiluvchi massani tashkil qilsa, o'rtacha yillarda esa bu ko'rsatgich 1,5-2,2 s/ga, qurg'oqchilik yillarda esa 0,5-1,2 s/ga dan ortmaydi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, yog'ingarchilik mo'l bo'lgan yillar xar o'n yil mobaynida 1-2 yil, o'rtacha yillar 3-4 yil va qurg'oqchil yillar 5-6 yilda takrorlanib turadi. Boz ustiga, yaylovlardan mavsumiy foydalanish tizimiga rioya qilmaslik oqibatida hozirgi kunda cho'l yaylovlarining 40 % dan ortiqroq maydonida yaylov



inqirozi (tanazzuli) yuzaga kelgan. Hosildorligi past, o‘simlik qoplamidagi biologik xilma-xillik juda past kambag‘allashgan. Faqatgina suv manbalari atrofidagi inqirozga uchragan yaylovlar maydoni 0,5 mln/ga dan ortiq, 1,0 mln/ga yerda ko‘chmanchi qum barxanlari mavjud. Yaylov inqirozi xududi qumli cho‘ldan iborat bo‘lgan Navoiy, Buxoro va Xorazm viloyatlarida ayniqsa xavfli tus olmoqda. Xozirgi kunda Navoiy viloyatlarida 4,1 mln/ga, Buxoro viloyatida 1,2 mln/ga yaylov turli darajadagi inqirozi kuzatilmoqda. Cho‘l chorvachiligida ozuqa tanqisligi ayniqsa qish va erta bahorda kuchli sezilmoqda. Xayvonlarni to‘laonli oziqlantirimaslik va faqatgina yaylov ozuqasiga tayanish oqibatida ularning mahsuldorlik ko‘rsatgichlari o‘z potensial imkoniyatlaridan ancha kam, soha samaradorligi esa juda pastligicha qolmoqda. Masalan, “O‘zbek qorako‘li” kompaniyasiga qarashli qorako‘lchilik xo‘jaliklarining deyarli barchasi uzoq yillar davomida yig‘ilib borayotgan debitorlik qarzlardan qutila olmayaptilar. Bu qarzlarning yuzaga kelishida qishlov uchun ozuqa sotib olish asosiy omillaridan biridir.

Cho‘l chorvachiligida yuzaga kelgan ushbu nohush holatni oldini olishda yaylov resurslaridan oqilona foydalanish, qishlov uchun mahalliy sharoitlarida ozuqa zaxiralarini yaratish, ozuqa ishlab chiqarishni intensiv yo‘lga qo‘yish va ilg‘or texnologiyalarga tayanib sohani yurgizish o‘ta muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. “Qorako‘lchilik sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 martdagi PQ-3603-son qarori
2. “Qorako‘lchilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 avgustdagi PQ-4420-son qarori
3. Bobokulov N.A., Popova V.V. va boshqalar. O‘zbekistonning sahro yaylovlari chorvachiligi va yem-xashak resurslaridan oqilona foydalanish. Toshkent-2015
4. S.Y.Yusupov , S.B.Sattorov, S.R.Bazarov. Qorako‘lchilik mahsulotlarini yetishtirish texnologiyasi. SAMARQAND -2013
5. Кедрова С.И. Кормеление каракулских овец. Москва-1961.